



PRIORITIES OF JAPAN'S FOREIGN POLICY

Barno Suyunova

PhD student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: diplomatic power, pacifism, human dignity, Future Summit, "nuclear-weapon-free world".

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

Abstract: This article analyzes Japan's role in international relations and the priorities of its foreign policy. The information is presented systematically based on the basic principles of Japanese foreign policy. It was emphasized that strengthening relations with foreign countries to preserve and strengthen a free and open international order based on the rule of law of the Japanese government will help the world free itself from division and conflict, and deepen mutual cooperation. Japan will continue to actively promote measures such as a "nuclear-weapon-free world", human rights, peacebuilding and the fight against terrorism and transnational organized crime. These aspects are given special attention in establishing relations with the countries of Central Asia.

YAPONIYA TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARI

Barno Suyunova

Tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: diplomatik kuch, pasifizm, inson qadr-qimmati, Kelajak sammiti, "yadro qurolidan holi dunyo".

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yaponiyaning xalqaro munosabatlardagi o'рни va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Yaponiya tashqi siyosatining asosiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda ma'lumotlar tizimli tarzda keltirilgan. Yaponiya hukumatining qonun ustuvorligiga asoslangan erkin va ochiq xalqaro tartibni

saqlab qolish va mustahkamlashni davom ettirishda xorijiy davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashi o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish bilan bir qatorda dunyoni bo'linish va ziddiyatlardan holi bo'lishga yordam berishi yoritilgan. Yaponiya "yadro qurolidan holi dunyo", inson huquqlari, tinchlik o'rnatish, terrorizm va transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash kabi chora-tadbirlarni faol ilgari surishda davom etadi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni olib borishda ham mazkur jihatlar alohida e'tibor qaratiladi.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ ЯПОНИИ

Барно Суюнова

Докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дипломатическая власть, пацифизм, человеческое достоинство, Саммит будущего, «мир без ядерного оружия».

Аннотация: В данной статье анализируется роль Японии в международных отношениях и приоритеты ее внешней политики. Информация представлена систематически, исходя из основных принципов японской внешней политики. Подчеркивалось, что укрепление отношений с зарубежными странами в целях сохранения и укрепления свободного и открытого международного порядка, основанного на верховенстве закона японского правительства, поможет миру освободиться от раскола и конфликтов, а также углубить взаимное сотрудничество. Япония продолжит активно продвигать такие меры, как «мир, свободный от ядерного оружия», права человека, миростроительство и борьба с терроризмом и транснациональной организованной преступностью. Этим аспектам уделяется особое внимание в налаживании отношений со странами Центральной Азии.

KIRISH

Yaponiya iqtisodiy o'sish sur'atining yuqoriligi va o'z xalqining mehnatsevarligi bilan butun dunyoga namoyon bo'ldi. Qolaversa, Yaponiya tashqi siyosiy muvaffaqiyatlari mustahkam iqtisodiy poydevorga tayanadi. Yaponiyaning kengayib borayotgan tashqi savdo-sotig'i kengayib borayotgan Yaponiya diplomatiyasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatib

bormoqda. Shu xususida amerikalik siyosatchi olim S.Xantington ham Yaponiyaga muvaffaqiyatli modernizatsiyalashgan va iqtisodiy rivojlana olgan yagona G'arbdan tashqaridagi mamlakat sifatida ta'rif bergan.

ASOSIY QISM

Sovuq urush davrida AQSh Yaponiya tashqi siyosatida ustuvorlik qilgan bo'lsa, zamonaviy davrga kelib, Yaponiya nisbatan erkin siyosat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Yaponiya Tashqi ishlar vazirligining Moviy kitobida ta'riflanganidek, Yaponiya o'zining siyosiy, xavfsizlik va iqtisodiy sohalarida milliy manfaatlarini ta'minlash, shuningdek, erkinlik, demokratiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligi kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda, xalqaro vaziyatdagi o'zgarishlar va tendensiyalarga moslashish orqali tashqi siyosatini olib boradi[1].

Yaponiya tashqi siyosati bo'yicha Tashqi ishlar vaziri Y.Kamikavaning 2024-yil 30-yanvarda Yaponiya Parlamentida so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek, hozirgi kunda Yaponiya qonun ustuvorligiga asoslangan erkin va ochiq xalqaro tartibni targ'ib qilishni davom ettiradi va kuchaytirib boradi. Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining (BRM) asosiy tamoyiliga asoslanib, "inson qadr-qimmati" himoya qilinadigan, xavfsiz dunyoni amalga oshirish uchun "Hech kimni ortda qoldirmang" (Leave no one behind) diplomatiyasini davom ettiradi[2].

Milliy xavfsizlik strategiyasida diplomatik kuch Yaponiyaning xavfsizlik bilan bog'liq umumiy milliy kuchining elementi sanaladi. Diplomatiya va mudofaa sohalarini muvofiqlashtirgan holda, Yaponiyaning kuchli iqtisodiyot, yuqori texnologik imkoniyatlar va boy madaniyat kabi turli yumshoq kuchlarini o'zaro samarali uyg'unlashtirishi tashqi siyosat va xavfsizlik siyosatini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Yaponiya tashqi siyosati bo'yicha Tashqi ishlar vaziri Y.Kamikavaning Yaponiya Parlamentida so'zlagan nutqiga ko'ra, bugungi kunda ikki va ko'p tomonlama munosabatlarning asosiy yo'nalishlari quyidagi mamlakat va mintaqalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- Yaponiya-AQSh ittifoqi Yaponiya tashqi siyosati va xavfsizligining asosi hisoblanadi;
- Yaponiya va mintaqada tinchlik va farovonlikni saqlash uchun qo'shni davlatlar – Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya va Shimoliy Koreya bilan barqaror munosabatlarni o'rnatib, murakkab masalalarni birma-bir hal qilishga intiladi;
- Iqtisodiy diplomatiyaning yangi chegaralarini o'rganish, ko'p tomonlama savdo tizimini yanada mustahkamlash, CPTPPning yuqori standartlarini saqlash va mustahkamlash, RCEP kelishuvining shaffof bajarilishini ta'minlash, xususan, rivojlanayotgan davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirishga e'tibor qaratiladi;

– Global Janub bilan hamkorlik: bunda rivojlanayotgan va kam rivojlangan davlatlar bilan “inson qadr-qimmati”ga asoslangan diplomatiya va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish nazarda tutiladi;

– Global muammolar uchun hamkorlik aloqalarini kengaytiradi[2].

Yaponiya-AQSh ittifoqi Yaponiya tashqi siyosati va xavfsizligining asosi bo‘lishi bilan birgalikda Hind-Tinch okeani mintaqasida tinchlik va farovonlikning tamal toshi hisoblanadi. Yaponiya hukumati AQSh kuchlarining Yaponiyada barqaror joylashishini ta’minlash uchun barcha sa’y-harakatlarni amalga oshiradilar. Kuchlar muvozanatining Xitoy foydasiga o‘zgarishi Yaponiyani Xavfsizlik shartnomasi bo‘yicha AQSh bilan hamkorligi muhimligini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. 2000-yillarning boshidan beri u Vashingtonni mintaqaviy siyosiy va iqtisodiy tashkilotlar bilan yaqinroq hamkorlik qilishga undash yo‘llarini izlab keladi[3]. Yaponiya va Xitoy “konstruktiv va barqaror” munosabatlarni o‘rnatishga harakat qilmoqda. Shu o‘rinda, Xitoy-Rossiya munosabatlarining kuchayishi, Tayvan masalasi Yaponiyani tashvishga soladi. Sharqiy Osiyo mintaqasida Xitoy ta’sirining tezlik bilan kuchayishi, KXDRni Xitoy tomonidan iqtisodiy qo‘llab-quvvatlanishi ham nafaqat Janubiy Koreyani, balki Yaponiyani ham tashvishga solidi[4]. Hind-Tinch okeani mintaqasidagi qiyin xavfsizlik muhitini hisobga olgan holda, Yaponiya va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi yaqin hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlari yaxshilanib borishi global muammolar bo‘yicha hamkorlikni yanada mustahkamlashga imkoniyat beradi. Yana bir qo‘shni hudud – Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi sababli Yaponiya-Rossiya munosabatlari og‘ir ahvolda qolmoqda, biroq hukumat Shimoliy hududlar masalasini hal qilish va tinchlik shartnomasini tuzish tarafdori bo‘lib qolmoqda. Yaponiya Rossiyaga qarshi sanksiyalarida, shuningdek, Ukrainaga yordam berishda astoydil harakat qilishda davom etib kelmoqda. 2024-yilning 19-fevral kuni Tokioda Ukraina iqtisodiyotini qayta tiklashga ko‘maklashish bo‘yicha Yaponiya-Ukraina konferensiyasi o‘tkazilganligi va unda xususiy kompaniyalarning ishtirokida 50 dan ortiq hamkorlik hujjatlarini imzolashga kelishilganligi[5] Yaponiya tashqi siyosatidagi “pasifizm” konsepsiyasining ustuvorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shimoliy Koreya yadroviy va raketa faoliyatini yanada kuchaytirish niyatida ekanligini ochiq bayon qilishi, shuningdek, Rossiya va Shimoliy Koreya o‘rtasidagi harbiy hamkorlik tobora kuchayib borayotganligi nafaqat Yaponiyani, balki butun xalqaro hamjamiyatni tashvishga solmoqda. Shimoliy Koreya bilan Pxenyan deklaratsiyasiga asoslanib, odam o‘g‘irlash, yadro quroli va raketalar kabi dolzarb masalalarni har tomonlama hal qilish va Yaponiya-Shimoliy Koreya o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni normallashtirish uchun Yaponiya Bosh vaziri F.Kishida Koreya Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti Kim Chen In bilan istalgan vaqtda va hech qanday shartlarsiz yuzma-yuz uchrashish qarorini, uning

bevosita rahbarligida oliy darajadagi muzokaralar o'tkazishdan manfaatdor ekanligini bildirdi[6]. Bundan ko'rinadiki, Yaponiya nafaqat mamlakat manfaati uchun, balki mintaqaviy va global xavfsizlikni saqlab qolish maqsadida Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bilan o'zaro munosabatlarini normallashtirishga intilmoqda.

Yaponiya o'z tashqi siyosatini olib borishda iqtisodiy jihatlarga ham ahamiyat beradi. O'zining kuchli va moslashuvchan iqtisodiy kuchi orqali dunyoda borligini namoyish etish uchun davlat-xususiy hamkorlikka e'tibor qaratib, erkin va adolatli iqtisodiy tartibni saqlash va kengaytirishga harakat qilib kelmoqda. Ittifoqdoshlar va hamkorlikdagi mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, ODAdan foydalanish hamda davlat va xususiy sektorlar bilan yaqindan hamkorlik qilish orqali ta'minot zanjirlarini mustahkamlashda har bir mintaqaning qiyinchiliklari va xususiyatlarini inobatga olgan holda batafsil va strategik iqtisodiy diplomatiyani ilgari surayotganligining guvohi bo'lyapmiz.

Bosh vazir F.Kishida ta'kidlab aytganidek, Yaponiya hukumatining qonun ustuvorligiga asoslangan erkin va ochiq xalqaro tartibni saqlab qolish va mustahkamlashni davom ettirishda Global Janub bilan aloqalarni mustahkamlashi o'zaro hamkorlikni chuqurlashtiradi va dunyoni bo'linish va ziddiyatlardan holi bo'lishga yordam beradi. Bundan tashqari, oziq-ovqat inqirozi, iqlim o'zgarishi va yuqumli kasalliklar kabi global muammolarga javoban Yaponiyaning kuchli tomonlaridan foydalangan holda "inson qadr-qimmati"ga asoslangan diplomatiya va xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi[7].

Bundan tashqari, Yaponiya global muammolar bo'yicha hamkorlikda, asosan, BMT doirasidagi aloqalarga e'tibor qaratadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining funksiyalarini Xavfsizlik Kengashini isloh qilish orqali mustahkamlashga harakat qiladi. Bu o'rinda Yaponiyaning BMT Xavfsizlik Kengashi islohotini ilgari surishda hamkorlik qiluvchi G4 (Yaponiya, Hindiston, Germaniya va Braziliya) guruhi a'zosi sifatida o'z tashabbuslariga ilgari surib kelayotganligi[8] muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, 2023-2024-yillarda BMT Xavfsizlik Kengashida 12-marta muvaqqat a'zo sifatida saylanishi, 2024-yilning mart oyida Yaponiya Xavfsizlik Kengashiga raislik qilishi, muhim masalalar, xususan, tinchlikni ta'minlash, xavfsizlik va inson qadr-qimmati birinchi o'rinda turuvchi masalalarga ustuvor e'tibor qaratilishiga ishonish mumkin. Bundan tashqari, 2024-yil 22-23-sentabr kunlari o'tkazilishi rejalashtirilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Kelajak sammiti"da[9] ham Yaponiya "inson qadr-qimmati" va inson xavfsizligi g'oyasiga asoslangan "insonga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlik"ni boshqaradi[2].

Shu bilan birgalikda, Yaponiya “yadro qurolidan holi dunyo”ni amalga oshirish, Yaponiyaga xos inson huquqlari diplomatiyasi, tinchlik oʻrnatish, terrorizm va transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash kabi chora-tadbirlarni faol ilgari suradi.

Yaponiya Bosh vaziri F.Kishida 2023-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida soʻzlagan nutqida, yadroviy qurolga ega mamlakatlar yetakchilarini yadro qurolsiz dunyo uchun saʼy-harakatni kuchaytirishga chaqirganligi, yadroviy qurolsizlanish va uni tarqatmaslik borasida Hiroshima Harakat rejasi doirasidagi har bir tashabbusni amalga oshirish orqali real va amaliy saʼy-harakatlarni davom ettirayotganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda yadroviy qurolsizlanish bilan bogʻliq vaziyat Rossiyaning yadroviy qurol tahdidi va Shimoliy Koreyaning yadroviy raketalarini rivojlantirishi tufayli tobora ogʻirlashib bormoqda.

XULOSA

Yaponiya tashqi siyosatining asosiy vazifasi mamlakat xavfsizligini, Sharqiy Osiyo mintaqasida va butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni taʼminlash hisoblanib, uning uchta yoʻnalishini alohida koʻrsatish mumkin: dunyoda barqarorlik va tinchlikni taʼminlash; rivojlanayotgan davlatlarni qoʻllab-quvvatlash; global jamiyatning har bir fuqarosi farovon yashashiga yordam berish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya oʻz xalqining mehnatsevarligi va iqtisodiy oʻsish surʼatining yuqoriligi bilan butun dunyoda oʻz oʻrniga ega boʻlib qolmoqda. Pandemiya davridagi iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, iqtisodiy jihatdan yuqori oʻrinlarni egallab turibdi. Yaponiya nafaqat Sharqiy Osiyo va Hind-Tinch okeani mintaqalarida, balki butun dunyoda zamonaviy va ilmiy-texnikaviy ishlab chiqarish mahsulotlari boʻyicha yetakchilik qilmoqda. Tashqi siyosatining oʻziga xosligi esa Yaponiyani zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida oʻz oʻrnini saqlab qolishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Diplomatic bluebook 2022. – P. 14. // https://www.mofa.go.jp/policy/other/blue-book/2022/pdf/en_index.html
2. 第213回国会における上川外務大臣の外交演説. 令和6年1月30日 (Foreign Policy Speech by Foreign Minister Kamikawa to the 213th Session of the Diet) // https://www.mofa.go.jp/fp/pp/pageite_000001_00141.html
3. Стрельцов Д. В. Японский регионализм эпохи Синдзо Абэ через призму ценностного подхода //Мировая экономика и международные отношения. 2019. – Т. 63. – №. 9. – С. 40.
4. Boʻronov S., Azimov H. Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolari. – T.: Effect-D, 2023. – B. 264.

5. 岸田総理大臣とシュミハリ・ウクライナ首相の会談. 令和6年2月19日. (Meeting between Prime Minister Kishida and Ukrainian Prime Minister Shmyhal) // https://www.mofa.go.jp/mofaj/erp/c_see/ua/pageit_000001_00337.html
6. Statement summary by Fumio Kishida, Prime Minister of Japan. 19 September 2023. // <https://gadebate.un.org/en/78/japan>
7. 第二百十三回国会における岸田内閣総理大臣施政方針演説. 令和6年 1月30日. (Prime Minister Kishida's Administrative Policy Speech at the 213rd Diet Session) // https://www.kantei.go.jp/jp/101_kishida/statement/2024/0130shiseihoshin.html
8. Diplomatic Bluebook 2023. Japan's Foreign Policy to Promote National and Global Interests. // <https://www.mofa.go.jp/policy/other/bluebook/2023/en.html/chapter3/c030105.html#:~:text=Japan%20was%20elected%20as%20a,any%20other%20UN%20Member%20State>
9. Summit of the Future. Multilateral Solutions for a Better Tomorrow. // <https://www.un.org/en/summit-of-the-future#:~:text=The%20Summit%20of%20the%20Future%20will%20create%20the%20conditions%20in,of%20the%202023%20SDG%20Summit>